

UO‘K: 633.854.78;631.816.1

**TAKRORIY EKin SIFATIDA EKILGAN KUNGABOQARNING BARG
SONIGA EKISH MUDDATLARI VA MINERAL O‘G‘ITLAR
ME‘YORLARINING TA‘SIRI**

Ro‘zmanov Abdullo Norboy o‘g‘li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Qashqadaryo viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan kungaboqar navlarining barg soni aniqlangan. Olingan natijalarga ko‘ra kungaboqarning “Diyor” va “Jahongir” navlari ekish muddati va oziqlantirish me‘yorlari orqali o‘simlik barg soni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: takroriy ekin kungaboqar, oziqlantirish me‘yori, muddat, barg soni, nav.

Аннотация. Была определена количество листьев у сортов подсолнечника, высаживаемых в качестве повторной культуры в условиях Кашкадарьинской области. По полученным результатам количество листьев у сортов подсолнечника «Дийор» и «Джахонгир» была описана с учетом сроков посадки и норм подкормки.

Ключевые слова: Повторное выращивание подсолнечника, норма подкормки, период, количество листьев, сорт.

Annotation. The leaf number of sunflower varieties planted as a secondary crop in the Kashkadarya region was determined. Based on the results, the leaf number of the 'Diyor' and 'Jahongir' sunflower varieties was described taking into account planting timing and fertilizing rates.

Keywords: repeated crop sunflower, feeding rate, period, number of leaves, variety.

Kirish. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sohasida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, mavjud yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, hosildorligi yuqori bo‘lgan, qisqa vegetatsiya davriga ega ekinlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida, xususan, sug‘orma dehqonchilik tarmoqlari rivojlangan viloyatlarda takroriy ekin sifatida



bahorgi don ekinlari yoki sabzavotlardan bo'shagan yer maydonlarida kungaboqar ekinini yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kungaboqar (*Helianthus annuus* L.) o'zining qisqa vegetatsiya davri, yuqori moslashuvchanligi, to'yimli va sifatli moy berishi bilan boshqa takroriy ekinlar orasida ajralib turadi. U nafaqat oziq-ovqat sanoatida, balki texnik va yem-xashak maqsadlarida ham keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, kungaboqar ekini o'zidan keyingi ekinlar uchun yaxshi agrofon yaratadi, yerning unumdorligini pasaytirmasdan, aksincha, uni tiklashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar, yer resurslarini intensivlashtirish, suvdan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish vazifalari kungaboqar ekinining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Biroq, ushbu ekinni takroriy tarzda muvaffaqiyatli yetishtirishda qator agrotexnik omillar jumladan, ekish muddatlari va oziqlantirish me'yorlari muhim rol o'ynaydi. Chunki har qanday ekin singari, kungaboqar ham muayyan agroiklimiy sharoitlarga nisbatan sezgir bo'lib, o'z vaqtida va ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlar qo'llanilgandagina yuqori hosildorlikka erishish mumkin. Ekish muddatlari kungaboqar o'suv davridagi harorat, tuproqdagi namlik zaxirasi, yorug'lik va boshqa omillar bilan chambarchas bog'liq. O'z vaqtida ekilmagan kungaboqar o'sish fazasida stress omillarga uchrashi, vegetatsiya muddati qisqarib, poya balandligi, barglar soni va umumiy biomassa kamayib ketishi mumkin. Ayniqsa, yoz oylaridagi yuqori harorat va namlik tanqisligi sharoitida kechikkan ekinlar past hosilga olib keladi.

Shuningdek, oziqlantirish me'yorlari ham o'simlikning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kungaboqar oziq moddalar — ayniqsa, azot, fosfor va kaliyga talabchan hisoblanadi.

Shu bois, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kungaboqar ekinini takroriy ekin sifatida yetishtirish bo'yicha 3 ta muddatda, 5 ta oziqlantirish usulida (ma'dan o'g'itlar me'yorlari) ekib o'rganishni maqsad qildik.

Olingan natijalarga ko'ra, tadqiqot (2023 y) davomida dala tajribasining erta ekish muddatidagi (15-20 iyun) "Diyor" va "Jahongir" navlarida ma'dan o'g'itlar qo'llanilmagan nazorat ($N_0P_0K_0$) 1-variantida o'simlikning barg soni (dona/tup) urug' to'lish vaqtida o'rtacha, 27,2; 26,1 dona/tup, ma'dan o'g'itlar qo'llanilgan 2-variantda ($N_{80}P_{60}K_{60}$) o'simlikning barg soni o'rtacha, 28,1; 26,5 dona/tup ni tashkil etishi



aniqlandi. Ma'dan o'g'itlar me'yori ko'paytirilgan 3-variant ($N_{100}P_{80}K_{60}$) va 4-variantda ($N_{120}P_{100}K_{60}$) esa, o'simlikning barg soni o'rtacha, 28,4; 28,7 va 30,6; 30,9 dona/tup; 5-variantlarda ($N_{140}P_{120}K_{60}$) esa, mos ravishda o'simlikning barg soni o'rtacha, 29,5; 30,6 dona/tup tashkil etishi aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz davomida dala tajribasining o'rta ekish muddatidagi (25-30 iyun) "Diyor" va "Jahongir" navlarida ma'dan o'g'itlar qo'llanilmagan nazorat ($N_0P_0K_0$) 1-variantida o'simlikning barg soni (dona/tup) urug' to'lish vaqtida o'rtacha, 25,0; 24,8 dona/tup, ma'dan o'g'itlar qo'llanilgan 2-variantda ($N_{80}P_{60}K_{60}$) o'simlikning barg soni o'rtacha, 25,9; 25,5 dona/tup ni tashkil etishi aniqlandi. Ma'dan o'g'itlar me'yori ko'paytirilgan 3-variant ($N_{100}P_{80}K_{60}$) va 4-variantda ($N_{120}P_{100}K_{60}$) esa, o'simlikning barg soni o'rtacha, 26,5; 27,6 va 29,2; 30,4 dona/tup; 5-variantlarda ($N_{140}P_{120}K_{60}$) esa, mos ravishda o'simlikning barg soni o'rtacha, 27,4; 29,8 dona/tup tashkil etishi aniqlandi.

1-jadval

Takroriy ekin sifatida ekilgan kungaboqarning barg soni dona/tup
(Janubiy dehqonchilik ITI tajriba maydoni. 2023 y.)

№	Nav nomi	Maʼdan oʻgʻitlar, kg/ga	7-8 barg hosil qilish	Yulduzchalash davri	Shonalash	Gullash	Urugʻ toʻlishish
Erta muddat (15-20 iyun)							
1	Diyor	N ₀ P ₀ K ₀	6,2	15,6	22,0	25,7	27,2
2		N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀	6,7	16,2	22,3	27,3	28,1
3		N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀	7,1	16,3	22,9	27,4	28,4
4		N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀	7,4	16,9	23,8	29,7	30,6
5		N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀	7,0	17,3	25,5	27,9	29,5
6	Jahongir	N ₀ P ₀ K ₀	6,1	15,1	21,3	25,1	26,1
7		N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀	6,4	16,0	22,2	26,2	26,5
8		N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀	7,2	16,9	23,3	29,1	28,7
9		N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀	7,4	17,4	24,8	30,8	30,9
10		N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀	7,9	17,8	27,1	30,0	30,6
Oʻrta muddat (25-30 iyun)							



11	Diyor	N ₀ P ₀ K ₀	5,9	14,8	17,4	22,6	25,0
12		N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀	6,2	15,0	18,1	23,9	25,9
13		N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀	6,2	15,2	18,2	23,9	26,5
14		N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀	6,7	15,8	20,5	26,2	29,2
15		N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀	7,0	16,2	21,3	25,7	27,4
16	Jahongir	N ₀ P ₀ K ₀	5,7	13,9	17,1	22,0	24,8
17		N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀	6,2	14,1	17,7	22,3	25,5
18		N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀	6,5	15,6	18,6	24,9	27,6
19		N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀	7,0	16,3	19,8	28,8	30,4
20		N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀	7,4	16,7	23,3	26,7	29,8
Kechki muddat 05-10 iyul)							
21	Diyor	N ₀ P ₀ K ₀	5,7	12,4	17,4	20,7	22,2
22		N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀	6,0	12,7	18,9	22,3	23,0
23		N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀	6,1	13,1	19,9	22,3	23,3
24		N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀	6,4	13,4	20,9	25,6	25,1
25		N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀	6,9	13,9	21,8	23,8	24,6
26	Jahongir	N ₀ P ₀ K ₀	5,3	11,7	16,8	20,0	21,1
27		N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀	5,9	12,3	18,1	21,9	22,1
28		N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀	6,3	13,6	20,8	22,8	24,2
29		N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀	6,7	14,4	21,3	25,8	28,0
30		N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀	7,2	15,4	22,1	25,1	25,2

Jumladan tadqiqotimiz davomida dala tajribasining kechki ekish muddatidagi (05-10 iyul) “Diyor” va “Jahongir” navlarida ma’dan o’g’itlar qo’llanilmagan nazorat ($N_0P_0K_0$) 1-variantida o’simlikning barg soni (dona/tup) urug’ to’lish vaqtida o’rtacha, 22,2; 21,1 dona/tup, ma’dan o’g’itlar qo’llanilgan 2-variantda ($N_{80}P_{60}K_{60}$) o’simlikning barg soni o’rtacha, 23,0; 22,1 dona/tup ni tashkil etishi aniqlandi. Ma’dan o’g’itlar me’yori ko’paytirilgan 3-variant ($N_{100}P_{80}K_{60}$) va 4-variantda ($N_{120}P_{100}K_{60}$) esa, o’simlikning barg soni o’rtacha, 23,3; 24,2 va 25,1; 28,0 dona/tup; 5-variantlarda ($N_{140}P_{120}K_{60}$) esa, mos ravishda o’simlikning barg soni o’rtacha, 24,6; 25,2 dona/tup tashkil etishi aniqlandi. Mum pishish davriga kelib,



o'simliklar poyasining pastki qismidan barglarining sarg'ayishi hisobiga, barg soni ham shunga mutanosib kamayib borganligi ma'lum bo'ldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 son «Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori

2. Azizov T., Anorboyev I., To'xtayeva S. Takroriy kungaboqar yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. <https://agro.uz/uzsrvices/recomendations/4613>

3. Dala tajribalarni olib borish uslublari. (2007). O'zPITI.

4. Dospexov B.A. (1985). Методы полевого опыта. Agropromizdat.

5. Tursunov L.T., Bobonorov R., Vakilov A., Yusupov S. Qashqadaryo havzasi hududi tuproqlari. –Toshkent, Turon – iqbol. 2008. – 248 b.

